



Bohodirov zohidjon

Abdiraxmatov Quvonchbek

Eshboltayev Bunyod

DTPI Pedagogika fakulteti

Jismoniy madaniyat talabasi

Akhmedovdiyorbek7@gmail.com

ANNOTATSIYA:

Nafosat falsafasi, insonning estetik va ma'naviy qadriyatlarini o'rganish, go'zallik va san'atning mohiyatini tushunish maqsadida yaratilgan nazariyalar to'plamidir. Ushbu maqolada nafosat falsafasining asosiy tamoyillari, uning tarixiy rivojlanishi va zamonaviy hayotdagi ahamiyati haqida batafsil ma'lumot beriladi.

Kalit soʻzlar: Nafosat falsafasi, Estetika, Go'zallik, San'at, Ma'naviyat

АБСТРАКТНЫЙ:

Философия утонченности — это сборник теорий, созданных для изучения эстетических и духовных ценностей человека, понимания сущности красоты и искусства. В данной статье представлена подробная информация об основных принципах философии изощренности, ее историческом развитии и значении в современной жизни.

Ключевые слова: Философия изысканности, Эстетика, Красота, Искусство, Духовность

ABSTRACT:

The philosophy of sophistication is a collection of theories created to study the aesthetic and spiritual values of a person, to understand the essence of beauty and art. This article provides detailed information about the main principles of the philosophy of sophistication, its historical development and its importance in modern life.

Key words: Philosophy of sophistication, Aesthetics, Beauty, Art, Spirituality





Kirish

Nafosat falsafasi, insoniyat tarixida go'zallik va san'atning ahamiyatini tushunishga qaratilgan muhim bir soha hisoblanadi. U estetik tajribalarni, san'at asarlarini va ularning inson ruhiga ta'sirini o'rganadi. Nafosat falsafasi, shuningdek, go'zallik tushunchasining o'zgarishi va rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib, turli madaniyatlar va davrlar davomida o'zgarib borgan.

Nafosat falsafasining asosiy maqsadi, insonning estetik tajribasini chuqurroq tushunish va go'zallikni yaratish jarayonini o'rganishdir. Bu jarayon, shuningdek, san'at asarlarini baholash va ularning ma'naviy ahamiyatini aniqlashda muhim rol o'ynaydi.

Nafosat falsafasining asosiy jihatlari

1. Estetika va go'zallik: Nafosat falsafasi go'zallik tushunchasini o'rganadi va uning inson ruhiga ta'sirini tahlil qiladi. Go'zallik, nafaqat tashqi ko'rinish, balki ichki ma'no va hissiyotlar bilan ham bog'liqdir.
2. San'at va uning ahamiyati: San'at, nafosat falsafasining markaziy elementi hisoblanadi. San'at asarlari, insonning ichki dunyosini ifodalash va estetik tajribalarni yaratish uchun vosita sifatida xizmat qiladi.
3. Ma'naviyat va estetik tajriba: Nafosat falsafasi, ma'naviyat va estetik tajriba o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganadi. Insonning estetik tajribasi, uning ma'naviy rivojlanishiga va ruhiy holatiga ta'sir ko'rsatadi.

Estetika (qadimgi yunoncha: $\alpha\iota\theta\eta\tau\iota\varsigma$; nemischa: \ddot{A} sthetik - "his", "tuyg'u") olamning hissiy qabul qilinishini tadqiq etuvchi fanidir. Estetika san'at, madaniyat va tabiatning subyektiv qabul qilinishini o'rganadi. Estetika falsafaning aksiologiya sohasiga kiradi. "Estetika" terminini nemis faylasufi A.Baumgarten (1714—1776) ilmiy muomalaga kiritgan. Estetikaning sinonimi sifatida go'zallik falsafasi, san'at falsafasi, badiiy ijod falsafasi iboralari qo'llanib kelingan. Keyingi paytlarda nafoyeatshunoslik yoki nafosat falsafasi atamaları ham Estetikani anglatadigan bo'ldi. Estetika o'z ichiga san'at Estetikasi, tabiat Estetikasi, texnika Estetikasi, dizayn, sport Estetikasi, turmush Estetikasi, atrof muhitni go'zallashtirish va boshqalar sohalarni qamrab oladi.

Estetika nafosat, did, go'zallik, xunuklik, ulug'vorlik, tubanlik, fojaviylik, kulgililik, mo'jizaviylik, hayolilik singari kategoriyalar bilan ish ko'radi. Ular orasida nafosat tushunchasi alohida o'rin egallaydi. U bir tomondan, estetik anglashning barcha jihatlarini (estetik hissiyot, estetik zavq, estetik did, estetik muhokama va boshqalar), ikkinchi tomondan, estetik xususiyatlarni — amaldagi go'zallik,





ulugʻvorlik, fojiviylik, kulgilik va hokazo jihatlarni oʻz ichiga oladi. Ana shu keyingi jihati bilan nafosat baʼzan Estetikaning predmeti sifatida ham qabul qilinadi.

Estetikaning tadqiqot obʼyektleri ichida sanʼat alohida oʻrinni egallaydi, u qadimdan to hozirgi kungacha eng koʻp tadqiq etilgan estetik soha hisoblanadi. Estetikaning bu borada sanʼatshunoslik fanlaridan farqi shundaki, u oʻz obʼyektiga falsafiy nazariy jihatdan yondashadi. Estetika sanʼatni — sanʼatkor, sanʼat asari, sanʼat asarini idrok etuvchi shaxsdan iborat yaxlit tizimda olib oʻrganadi, barcha sanʼat turlari uchun zarur boʻlgan umumiy qonunqoidalarni ishlab chiqadi. Mas, adabiyotshunoslikdatch qofiya nazariyasini musiqaga yoki haykaltaroshlikka nisbatan qoʻllab boʻlmaydi. Estetikadagi kompozitsiya yoki uslub nazariyasi esa meʼmorlikdan tortib badiiy suratkashlikkacha boʻlgan hamma sanʼat turlariga taalluklidir. Ayni paytda Estetika sanʼatning tabiati, uning ijodiyliigi va boshqalar jihatlarini tadqiq etadi; badiiy oqimlar va yoʻnalishlarning, ijodiy uslublarning mohiyatini oʻrganadi.

Estetika falsafiy ilm sifatida koʻplab ijtimoiy va tabiiy fanlar bilan aloqadordir. Uning etika bilan aloqasi alohida diqqatga sazovor. Bu ikkala fanning oʻzaro yaqinligi, avvalo, inson xatti-harakatining koʻp hollarda ham axloqiylik, ham nafosat uygʻunligidan iborat ekanligida; 2dan, Estetikaning asosiy tadqiqot obʼyekti boʻlmish sanʼat mohiyatan ezgulik va yovuzlik oʻrtasidagi kurashning badiiy inʼikosi sifatida doimo dolzarb axloqiy muammolarni koʻtarib chiqadi; 3dan, Estetikaning baʼzi tushunchalari etika uchun ham birdek xizmat qiladi; 4dan, Estetika oʻrganadigan xulqiy goʻzallik sohasi axloq bilan bevosita bogʻliq. Ayni paytda ikkala fan bir-biriga juda oʻxshash ekan degan taassurot tugʻilmasligi kerak. Estetika har bir obʼyektga aniq, muayyan yondashuvni talab qiladi, etika esa hamma uchun umumiy boʻlgan qonunqoidalarni, hikmatlarni ishlab chiqadi. Estetikaning psixologiya bilan aloqasi ham juda muhim: har ikkala fan ruhiy holatlarni oʻrganadi. Har ikkala fan uchun umumiy boʻlgan sanʼat psixologiyasi va badiiy ijod psixologiyasi degan maxsus yoʻnalishlar mavjud. Estetika va sotsiologiyaning oʻzaro munosabatlarida sanʼatni hamkorlikda oʻrganish masalalari muhim. Sanʼat asari alohida inson shaxsiga eʼtibor qilgani holda, jamiyatni ijtimoiy munosabatlar tizimi, ijtimoiy tuzilma sifatida badiiy tadqiq etadi, ayni paytda sotsiologik tadqiqotlar uchun oʻziga xos material boʻlib xizmat qiladi; sotsiologiya jamiyat bilan sanʼatning oʻzaro aloqalarini, sanʼatning ijtimoiy vazifalarini; sanʼatkorning jamiyatdagi oʻrni, mavqei, kitobxon va tomoshabinlarning ijtimoiydemografik holatlarini; shaxs ijtimoiylashuvida sanʼatlar va sanʼat asarining ahamiyatini tahlil qiladi. Mazkur muammolarni oʻrganish uchun Estetika va sanʼat sotsiologiyasi sohasi mavjud. Estetikaning dinshunoslik bilan aloqasi ham katta ahamiyatga ega; din va sanʼat doimo bir-birini toʻldirib keladi, koʻp hollarda biri boshqasi uchun yashash sharti boʻlib xizmat qiladi. Asrlar mobaynida, ana





shu aloqalar natijasi o'laroq, san'at asarining o'ziga xos ko'rinishi — diniy badiiy asar vujudga keldi. Mas, Shohizinda me'moriy majmui, Kyoln jomesi, Rembrandtning "Muqaddas oila" asari, "Abu Muslim jangnomasi" qissasi va boshqalar Estetika bunday asarlarni tadqiq etar ekan, albatta, dinshunoslik fani bilan hamkorlik qiladi. Estetikaning pedagogika bilan bog'liqligi estetik tarbiya masalalariga borib taqaladi; pedagogika ham estetik tarbiya bilan shug'ullanadi. Lekin u alohida alohida, mustaqil qismlarga bo'lingan holda, turli yosh va sohalar uchun maxsus belgilangan tarbiya tarzida olib boriladi. Mas, maktabgacha tarbiya, o'quvchilar tarbiyasi, jismoniy tarbiya va hokazo. Estetika esa nafosat tarbiyasining umumiy qonunqoidalarini ishlab chiqadi — inson tug'ilganidan boshlab, to o'limigacha o'tadigan umr bosqichlari uchun taalluqli bo'lgan tarbiya falsafasi sifatida ish ko'radi. Estetikaning semiotika (belgilar va belgilar tizimlari haqidagi fan) bilan aloqadorligi keyingi paytlarda yanada teranroq tadqiq etilmoqda. Ma'lumki, har bir san'at asarining mazmun mohiyati muayyan belgilar vositasida namoyon bo'ladi, ya'ni bilish va baholash natijalari bo'lmish semiotik hamda pragmatik axborotni o'zida mujassam qilgan san'at asari o'sha axborotni yetkazib berishga ham mo'ljallangan; u san'at turiga qarab turlicha belgilar — harflar, chiziqalar, notalar va hokazo orqali amalga oshiriladi. San'atning semiotik belgilar bilan bog'liq ana shu tomonlarini — kommunikativ vositachilik jihatlarini semiotika o'rganadi; bu borada alohida tuzilmasemiotik deb nomlangan nazariy yondashuv ham mavjud. Shuningdek, Estetika barcha san'atshunoslik fanlari hamda tabiat Estetikasi nuqtai nazaridan ekologiya, axborot nazariyasi jihatidan kibernetika bilan aloqadorlikda ish ko'radi.

Estetika tarixining ibtidosi Somir (Shumer), Bobil, qadimiy Misr, qadimiy Xitoy va keyinroq yunon miflariga borib taqaladi. Bundan 5—6 ming yil avval ilk yozuv — mix xatda bitilgan Somir g'iltaxtalaridagi matnlarda "go'zallik", "san'at", "musiqa" singari so'zlarda aks etgan. dastlabki estetik tushunchalarni uchratish mumkin. qadimiy Misrda miloddan 4—4,5 ming yil avval san'atning barcha asosiy turlari, sal keyinroq esa professional teatr vujudga keldi. Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi Avestosh ilgari surilgan estetik g'oyalar keyinchalik Hindistonda, undan so'ng Yunonistonda Estetika rivojiga ta'sir ko'rsatdi. qadimiy Sharkdagi estetik g'oyalar dastlab foydalilik (nima foydali bo'lsa — o'sha go'zal), keyinroq axloqiylik (nima ezgu bo'lsa — o'sha go'zal) tamoyillari asosida shakllandi. Yunon mumtoz Estetikasi namoyandalari, ayniqsa, Aristotel go'zallikning foydalilikdan va ezgulikdan alohida holda mavjud bo'lishi mumkinligini aytib o'tdi; bu jihatdan uning "Poetika" ("She'riyat san'ati") asari e'tiborga molik. O'rta asrlarda musulmon sharqi tasavvuf Estetikasi bu g'oyalarni takomiliga yetkazib, yangi bosqichga ko'tardi; Uyg'onish davri va Yangi davr Estetikasi taraqqiyoti uchun nazariy asos bo'lib xizmat qildi. Estetika Byork, D.Yum,





I.Kant va boshqalar merosida buni yaqqol ko‘rish mumkin. Mas, Kantning go‘zallik haqidagi mashhur 4 tamoyilidan 3 tasi sharq faylasuflari nazariyalari asosiga qurilgan. Mazkur 3 tamoyil — go‘zallikning beg‘araz manfaatsiz munosabatga asoslanganligi; uning zaruratga aylangan muhabbatning ob‘yekti ekanligi (G‘azoliy); go‘zallikni oddiy mantiqiy yondashuv orqali bilishimiz mumkin emasligi (Forobiy) Kantni, go‘zallik biz uchun o‘zini maqsad shaklida emas, maqsadga muvofiqlik shaklida namoyon etadi degan 4tamoyilni yaratishga olib keldi. Kantdan so‘ng nemis ratsional Estetikasida Shiller, Shelling, Gegel nazariyalarining Estetika taraqqiyoti uchun ahamiyati katta bo‘ldi. Shopengauer, Nitsche, Diltey singari noratsional yo‘nalishdagi faylasuflarning estetik qarashlarida ham o‘ziga xos yangi g‘oyalari ilgari surildi, mas, Shopengauer Estetikaga yangi — "qiziqarlilik" kategoriyasini kiritdi, Nitsche esa san‘atni ikki — apolloncha va dionisiycha turga ajratib o‘rganishni taklif etdi. Eng yangi davr Estetikasida, Z.Freyd, ayniqsa, K.Yung ta‘limotida san‘at asari va san‘atkorning o‘zaro munosabatlarini ruhiy tiplar asosida o‘rganilishi olg‘a tashlangan yangi qadam bo‘ldi. Shuningdek, J.P.Sartr, A.Kamyu, G.Marsel, X. Ortega i Gaset va boshqalar mutafakkirlar industrial jamiyatda go‘zallik va san‘atning takdiri masalalari bilan qiziqdilar. Hozirgi Estetikaning miqyosiylov jarayonida texnika, tabiat va turmush Estetikasiga ham jiddiy e‘tibor berilmoqda; xulqiy go‘zallik muammosi yanada muhim o‘rin egallay boshladi.

O‘zbek milliy Estetikasi taraqqiyoti tarixan mintaqaviy tabiatga ega bo‘lib, uning ildizlari dastlab Avesto, keyin moniylikning muqaddas kitobi Xuastuanift (Za.)ga borib taqaladi. Islom dini qabul qilingach, milliy mintaqaviy Estetika Qur‘oni karim oyatlari va Hadisi sharifdagi "Alloh go‘zal va U go‘zallikni sevadi" degan tamoyil asosida rivojlandi. Bunda mashshoiyyunlik (Forobiy, Ibn Sino) bilan yonmayon tasavvuf Estetikasida kubroviylik (Najmiddin Kubro). jo‘mardlik (Pahlavon Mahmud), naqshbandiya (Alisher Navoiy) singari tariqat mutafakkirlarining go‘zallik, san‘at va san‘atkor borasidagi qarashlari muhim ahamiyat kasb etdi. O‘zbek Estetikasi tarixida, ayniqsa, Temuriylar davri alohida o‘ringa ega; Navoiyning "Mahbub ul-qulub", "Majolis unnafois", "Mezon ulavzon" asarlari, 15—16-asrlarda qator tazkiralari va musiqa nazariyasi borasidagi risolalar o‘zbek Estetikasi rivojiga ulkan hissa bo‘lib qo‘shildi. Xonliklar va chorizm mustamlakasi davrida esa o‘zbek Estetikasi ko‘proq tazkiralarda (Fazliy) va she‘riy shakllarda (Furqat) o‘z ifodasini topdi. O‘zbek milliy Estetikasidagi yuksalish 19-asr oxirlari — 20-asr boshlariga to‘g‘ri keladi. Bu davrda ma‘rifatchijadid mutafakkirlar yangicha estetik g‘oyalarni o‘rtaga tashladilar, badiiy adabiyotda, dramaturgiya janriga va zamonaviy teatr san‘atiga asos soldilar. Anbar Otinning "Qarolar falsafasi" (1910), Fitratning "Oila" (1914), keyinroq "Adabiyot qoidalari" (1926) risolalari yuzaga keldi, Cho‘lponning





badiiy adabiyot, teatr san'atiga bag'ishlangan turqum maqolalari e'lon qilindi. Lekin sho'rolar hukmronligi davridagi totalitarizm barcha falsafiy fanlar qatori Estetikani ham sinfiylik va partiyaviylik tamoyillari asosida biryoqchamalikka, mahdudlikka, soxtalikka mahkum qildi. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng Estetikaga alohida e'tibor berila boshlandi, estetik madaniyat (M.Nurmatov, M.Abdullayev), estetik qadriyatlar (T.Mahmudov) borasida yirik tadqiqotlar e'lon qilindi. Hozirgi vaqtda Estetika nazariyasi va tarixiga doir jiddiy izlanishlar olib borilmoqda (T.Mahmudov, A.Qurbonmamadov, EstetikaUmarov, A.Sher, B. Husanov). O'zbekiston milliy un~tida Estetika yo'nalishi bo'yicha magistratura faoliyat ko'rsatmoqda, shu yo'nalishda aspirantura va doktorantura mavjud. Mamlakatimizda fuqarolarning estetik tarbiyasiga taalluqi turli tadbirlar, ularning estetik didini yuksaltirishga qaratilgan ma'naviy ma'rifiy ishlar muntazam olib boriladi.

Foydalanuvchi adabiyotlar:

1. Aristotel, Poetika, T., 1981;
2. Mahmudov T., Go'zallik va hayot. T, 1974;
3. Nurmatov M., Tanqid va estetika, T, 1976;
4. Махмудов Т., Эстетика и духовные ценности, Т, 1993.
5. 1. Nizomiddin, A. "Nafosat falsafasi: nazariyalar va amaliyot", 2020.
6. 2. Karimova, D. "Estetika va go'zallik: zamonaviy yondashuvlar", "San'at va madaniyat", 2022.
7. 3. Kant, I. "Kritika of Judgment", 1790.
8. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Estetika>

